

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SO‘Z BIRIKMALARI USTIDA ISHLASH

Nuriyeva Feruza Shohsuvarovna

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi

2-bosqich talabasi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ona tili haqidagi bilimlar boshlang‘ich ta‘limda berilishi haqida so‘z yuritiladi. Gapda so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi, so‘z birikmasi ustida ishlashning samarali usullari yoritilgan.

Kalit so‘zi: savodxonlik, leksik-grammatik birlik gapda so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi bosh va ergash so‘zlar.

Barchamizga ayonki, boshlang‘ich ta‘lim inson hayoti davomida to‘plagan ta‘lim-tarbiyaning poydevori bo‘lib xizmat qiladi. Mukammal boshlang‘ich ta‘lim olgan o‘quvchilar yuqori sinflarda, ta‘limning keyingi bosqichida, shuningdek hayoti davomida ham hech qanday qiyinchilikka duch kelmay, yuksak natijalarga erisha oladi desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu uchun eng avvalo, barcha ma‘suliyat boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiga yuklatiladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilar savodini chiqarishda ularga mustahkam bilim berish va ularda zaruriy ko‘nikma va malakalarni shakllatirishda barcha imkoniyatlarni ishga solishi, ta‘lim -tarbiya jarayonini sifatli olib borishi lozimdir. Bugungi kunda o‘quvchi yoshlarning mafkurasini oshirish uchun turli mantiqiy fikrlashga turtki bo‘luvchi kitoblar ham muhim ahamiyatga ega. Bu har bit o‘quvchida erkin fikrlashga undaydi. Dekart aytganidek, "men fikrlayapmanmi demak, men mavjudman." Hozirgi kunda dolzarb vazifalardan biri bo‘lgan o‘quvchining savodxonlik darajasini oshirishda ona tili ta‘lim muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tilshunoslik bo‘limlarining elementlari bosqichma bosqich o‘rgatib boriladi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar gap tuzishda so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llay olishga qiynaladi. So‘z birikmasi leksik-grammatik birlik bo‘lib, tugallangan fikr ifodalagan uchun gapdan farq qiladi. Nutqda so‘z birikmalaridan gap ichida foydalaniladi. So‘z birikmasi haqidagi kengroq tushunchalar 8-sinf ona tili darsliklarida keltiriladi. Boshlang‘ich sinflar kesimda esa bu tushunchalar aynan shunday nom bilan kelmagan bo‘lsada, mavzuga oid bilimlar 1-2-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi va 3-4-sinf ona tili darsliklarida mashqlar orqali amaliy tarzda berib boriladi. 1-2-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklarida mavzuga doir qoidalar berilmay faqat bir nechta mashqlar bajartirish

orqali bilimlar bilan tanishish nazarda tutilgan xolos. Biz bu maqolada soʻz yasalihi, soʻz birikmalarini tuzish, soʻz turkumlari hamda gapda soʻzlarning bogʻlanishi mavzulari qoidalar bilan biroz kengroq yoritib berilgani uchun 3- sinf ona tili darsligidagi mashqlarga eʼtibor qaratamiz. Boshlangʻich sinflarda soʻz birikmasi ustida ishlashda quyidagi mashq turlaridan foydalaniladi.

1. Bosh soʻzdan ergash soʻzga soʻroq berish, soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishini aniqlash. Masalan, Sovuq shamol esdi.

Nima esdi? – shamol esdi,

Qanday shamol? – sovuq shamol.

Ushbu topshiriq orqali oʻquvchilar gapda soʻzlarning bogʻlanishini soʻroqlar yordamida topish mumkinligini bilib oladilar. Natijada ularda soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishini tushunishlarida soʻroq berish malakasi amaliy tarzda shakllana boshlaydi. Gapda soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishini chizmada koʻrsatish. Masalan, Qanday? Nimani? Jangovar qoʻshiq safimizni mustahkamlaydi. Ushbu mashqni bajarish uchun namuna berilgan boʻlib, oʻqituvchi yordamida birga amaliy koʻrsatiladi. Chizma yordamida mazmunan bir-biriga bogʻlangan soʻzlari soʻroq berib topish Oʻquvchi uchun yanada osonlashadi. Bu oʻquvchilarni asta-sekin murakkab qurilmalarni tuzishga ham oʻrgatadi. Matnda uchragan soʻz birikmalarini maʼnosini tushunish. Masalan, quyidagicha topshiriq berilgan mashqqa qaraylik: Soʻroqlarga mos soʻzlar qoʻyib, gaplarni toʻldiring.

2. Oʻquvchilar (kimlarga?) sovgʻa tayyorlashdi. Qizlar qiyqimdan (qanaqa?) qoʻgʻirchoqlar tikdilar. Oʻgʻil bolalar (nimadan?) uychalar yasadilar. Foydalanish uchun soʻzlar: chiroyli qogʻozdan kichkintoylarga. Oʻquvchilar ushbu topshiriqni bajarish davomida har bir soʻzni kerakli oʻrinlarga soʻroq berish Orqali maʼnosiga mos keluvchi soʻzni topib qoʻyib, talaffuz qilib koʻrishlari mumkin. Bu topshiriq orqali oʻquvchilarda sintaksis boʻlimiga doir soʻzlarning bogʻlanishi yuzasidan amaliy bilim va koʻnikmalar hosil qilinishiga erishish mumkin.

3. Matnda yoki faoliyat jarayonida uchragan yangi soʻz bilan soʻz birikmasi tuzish. “Berilgan soʻzlardan birikma tuzing” deb topshiriq berilgan. Bular “Shoʻx , olma, uzmoq, olma, ertakni, qoʻshiq , qovun, bola, tinglamoq, mehnatsevar, termoq.”

Yuqoridagi soʻzlardan birikma tuzamiz. Shoʻx qoʻshiq, olma termoq, ertakni tinglamoq, qovun uzmoq, mehnatsevar bola. Bu topshiriqni bajarish jarayonida oʻquvchilar oʻzlari oʻqigan har qanday soʻzlarning maʼnosini chaqa olishmaydi. Soʻroq berish orqali mazmunan bir-biriga mos kelmaydigan birikmalar tuzishlari ham

mumkin. Masalan, sho‘x bola, olma uzmoq, qovun termoq. Bunda so‘roq to‘g‘ri berilgan bo‘lsa ham mazmun jihatdan so‘z birikmasi biroz to‘g‘ri kelmagan vaziyat bo‘lishi ehtimoldan holi emas, albatta. Shuning uchun ham o‘quvchilarga tuzayotgan birikmalarning mazmun jihatdan katta ahamiyat kasb etishini tushuntirib borish kerak. mashqning bu turi so‘zning ma‘nosini chuqur tushunishga va undan o‘z nutqida chiroyli qo‘llashga yordam beradi.

4. So‘z turkumlarini o‘rganish bilan bog‘liq holda so‘z birikmasi tuzdirish. Bu turdagi mashqlar so‘z turkimlarini har birini alohida o‘rganish davomida bajarib boriladi. 3-sinf ona tili darsida asosan ot, sifat, son, fe‘l so‘z turkumlari bilan tanishtiriladi. Ko‘pincha har bir so‘z turkumi bilan tanishtirilganda matndan so‘roq berish orqali shu so‘z turkumini ajratish va unga bog‘langan so‘z bilan birga yozish topshirig‘i beriladi.

Ot bilan ot – maktab bog‘i
Sifat bilan ot – yoqimli kuy
Son bilan ot – yettinchi avtobus
Olmosh va fe‘l - unga berdi
Ot bilan fe‘l – kinoga bordi.

Yuqoridagi mashqlar o‘quvchilarda so‘z birikmasi va gap tuzishda xatoga yo‘l qo‘ymaslik, sintaksis-uslubiy xato qilishning oldini olish uchun xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari gap tuzishda so‘z birikmalarini noto‘g‘ri qo‘llash xolatlari ko‘p uchrashi mumkin. Bunday xatolar asosan kelishiklarni o‘z o‘rnida qo‘llay olmasliklaridan kelib chiqadi. Masalan,

<i>O‘quvchi nutqida uchraydi</i>	<i>To‘g‘ri birikma</i>
<i>Maktabni bog‘i</i>	<i>maktabning bog‘i</i>
<i>Ukamda berdim</i>	<i>ukamga berdim</i>
<i>Sayohatda chiqdik</i>	<i>sayohatga chiqdik</i>
<i>Mashinaga keldim</i>	<i>mashinada keldim</i>

Bolalar ko‘proq xatoga yo‘l qo‘yadigan so‘z birikmalarini yig‘ib borish xatoni oldini olishga qaratilgan mashqlar tuzishga imkon yaratadi. So‘z birikmasi ustida ishlash grammatik imloviy va boshqa mashqlarni to‘g‘ri bajarishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagilardan so‘z birikmasiga oid sintaktik bilimlar anchagina murakkab ekanligi uchun o‘quvchilarda o‘rganishni ertaroq boshlash va mashqlar natijasida ko‘proq takrorlash zarurligi kelib chiqadi. Shundagina ularning

sintaktik bilimlari oshishi, nutqiy xatoliklarning bartaraf etilishi va savodxonlik darajasi oshishiga hissa qo‘shgan bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Atadjanov, J. M. (2018). *Developing Professional Pedagogical Mastery of Future Initial Classes Teachers. Eastern European Scientific Journal*, (2).

2. Gazieva, D. (2019). *MEDIATEXT IN THE FUNCTIONAL-PRAGMATIC ASPECT. Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(9), 153-158.

3. Han-Woo, C., Khan, V. S., Yilmaz, E., Omelicheva, M., Hyo-Joung, K., Chai-Mun, L., & Chung-Rok, P. (1999). *International Journal of Central Asian Studies. Institute of Asian Culture and development*.

4. Inomzoda, A. A. (2021). "Improving The Teaching Of" Education" On the Basis of Multimedia Technologies" (On the Example of Primary Classes). *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 2, 88-90.

5. INTER, FIBER LENGTH IN. "An International Multidisciplinary Research Journal." *An International Multidisciplinary Research Journal* 41.43 (2017).

6. Kakharov, K. (2022). *Characteristics of Father's Speech in Uzbek and German Families. International Journal of Culture and Modernity*, 14, 43-47.

7. Kakharov, K., & Ergasheva, S. (2022). *Main Features and Functions of Uzbek and English Advertising. International Journal of Culture and Modernity*, 14, 56-60.

8. Kholikova, D. (2020). *INTELLECTUAL ACTIVITY OF CREATIVE THINKING VERBAL TEST "UNUSUAL USE". PEDAGOGICAL SCIENCES*, 22

9. Kholikova, D. M. (2021). *DEVELOPMENT OF INNOVATIVE THINKING SKILLS IN*